

---

УО‘К 662.997: 536.3

## ZAMONAVIY GELIOISSIQXONALARINING STATSİONAR REJIMDA İSSIQLIK-ENERGETİK PARAMETRLARINI HISOBBLAŞH NATİJALARI

Fatillayev Sardorbek Zokirovich<sup>1</sup>- doktorant (PhD)

Ergashev Shaxriyor Hamudillayevich<sup>2</sup>- texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Uzoqov G‘ulom Norboevich<sup>2</sup>-texnika fanlari doktori, professor,

e-mail: [Uzoqov66@mail.ru](mailto:Uzoqov66@mail.ru)

<sup>1</sup>Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro sh., O‘zbekiston

<sup>2</sup>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi sh., O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy gelioissiqxonalarining issiqlik yuklamasini hisoblash metodikasi va natijalar tahlili keltirilgan. Polietilin pylonka va polikarbonat oyna qoplamali issiqliklarda isitgich uchun talab qilinadigan issiqlik quvvatining mavsumiy o‘zgarishi tashqi havo harorati va quyosh radiatsiyasiga bog‘liqligi o‘rganilgan. Foydali maydon 100 m<sup>2</sup> bo‘lgan issiqlikda ikki qatlamlili polietilin qatlamda issiqlik yuklamasining maksimal qiymati 18,0 kvt, polikarbonat qoplamada esa 13,0 kvt ya’ni, 1,38 martaga, 25-28% kamayishi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** issiqlik energiyasi, yoqilg‘i sarfi, quyosh energiyasi, issiqlik yuklamasi, tashqi havo harorati, harorat-namlik rejimi, statsionar rejim.

УДК 662.997: 536.3

## РЕЗУЛЬТАТЫ РАСЧЕТА ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СОВРЕМЕННЫХ ГЕЛИОТЕПЛИЦ ПРИ СТАЦИОНАРНОМ РЕЖИМЕ

Фатиллоев Сардорбек Зокирович<sup>1</sup>- докторант (PhD)

Эргашев Шахриёр Хамудиллаевич<sup>2</sup> – доктор философии по техническим наукам

Узаков Гулом Норбоевич<sup>2</sup>-доктор технических наук, профессор,

e-mail: [Uzoqov66@mail.ru](mailto:Uzoqov66@mail.ru)

<sup>1</sup>Бухарский инженерно-технологический институт, г. Бухара, Узбекистан

<sup>2</sup>Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

**Аннотация.** В статье представлена методика расчета тепловой нагрузки современных солнечных теплиц и анализ полученных результатов. Изучено сезонное изменение тепловой мощности, необходимой для отопления теплиц с полиэтиленовой пленкой и поликарбонатным остеклением в зависимости от изменения температуры наружного воздуха и солнечной радиации. В теплице полезной площадью 100 м<sup>2</sup> максимальное значение тепловой нагрузки составляет 18,0 кВт в двухслойном полиэтиленовом слое, и 13,0 кВт в поликарбонатном покрытии. Установлено, что применением поликарбонатного прозрачного покрытия тепловую нагрузку можно снизить в 1,38 раза или 25-28% по сравнению с двухслойным пленочным покрытием.

**Ключевые слова:** тепловая энергия, расход топлива, солнечная энергия, тепловая нагрузка, температура наружного воздуха, температурно-влажностный режим, стационарный режим.

UDC 662.997: 536.3

## CALCULATION RESULTS OF HEAT-ENERGY PARAMETERS IN STATIONARY MODE OF MODERN HELIO-GREENHOUSES

**Fatilloev Sardorbek Zokir ugli<sup>1</sup>-doctoral student (PhD)**

**Ergashev Shakhriyor Hamudillayevich<sup>2</sup>- Doctor of Philosophy in Technical Sciences**

**Uzakov Gulom Norboevich<sup>2</sup>- Doctor of Technical Sciences, Professor**

<sup>1</sup>Bukhara Engineering Technological Institute, Bukhara city, Uzbekistan

<sup>2</sup> Karshi engineering-economics institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** The article presents the method of calculating the heat load of modern solar greenhouses and the analysis of the results. The seasonal change of the heating power required for the heater in the greenhouses with polyethylene film and polycarbonate glass cover was studied depending on the outdoor air temperature and solar radiation. In a greenhouse with a useful area of 100 m<sup>2</sup>, the maximum value of heat load is 18.0 kW in a two-layer polyethylene layer, and 13.0 kW in a polycarbonate coating, that is, it is easier to reduce by 1.38 times, 25-28%.


**Keywords:** thermal energy, fuel consumption, solar energy, heat load, outside air temperature, temperature-humidity mode, stationary mode.

### Kirish

Issiqxona xo‘jaliklari va himoyalangan tuproq inshootlarida optimal harorat-namlik rejimini yaratish muhim muhandislik masalalari bo‘lib, katta miqdorda yoqilg‘i-energiya resurslari sarfini talab qiladi. Soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, bir sotixli maydonda ega bo‘lgan plyonkali issiqliklarida optimal harorat rejimini o‘rnatish uchun sutkasiga 40-50 m<sup>3</sup> tabiiy gaz, yoki 52-65 kg ko‘mir yoqilg‘isi sarflanadi. Zamonaliv issiqliklarida isitgich mavzusi davomida 1 m<sup>2</sup> maydonda nisbatan 3-4 GJ issiqlik energiyasi va 60-80 kvt/soat elektr energiyasi sarflanishi aniqlangan [1, 2, 3, 4, 5].

O‘zbekiston janubiy hududlarida joylashgan Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida quyosh energiyasining potensiali yuqori bo‘lib, undan issiqliklarining isitish tizimidan foydalanish hamda quyosh va biomassa energiyasi asosidagi energetik qurilmalarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Jahonda Turkiya, Eron, Italiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda issiqlik energiyasi bo‘yicha zamonaliv texnologiyalar joriy qilingan [6, 7, 8, 9, 10].

Eron issiqliklarida yetishtiriladigan mahsulotlar o‘g‘itlar va kimyoviy pestitsidlarga ko‘proq bog‘liqligi sababli qishloq xo‘jaligining energiya iste’moli tarkibida sezilarli o‘rin egallaydi. Eron issiqliklarida bodring va pomidor yetishtirishda bir yilda mos ravishda gektariga 243 va 275 t.sh.yo. energiya sarflanadi. A. Ahmadbeyki va boshqalarning tadqiqotlarida energiya samaradorligi, atrof-muhitga ta’siri va yalpi energiya talabini hisobga olib, issiqlik ekinlarini yetishtirish uchun turli omillarni nazorat qilish va ekologik sharoitlarni yaxshilash talab qilinadigan yuqori energiya sarfi bilan bog‘liqligi ilmiy asoslangan. Issiqliklarida bodring va pomidor yetishtirishda bir yilda mos ravishda gektariga to‘g‘ri keladigan energiya iste’moli natijalari mos ravishda 405,4 va 412,9 GJ/ga ni tashkil etishini ko‘rsatdi. Iste’mol qilinadigan energiya resurslar orasida dizel yoqilg‘isining ulushi 60% dan ortiq. Issiqliklarida bodring va pomidor yetishtirishning energiya samaradorligi natijalari pomidorning energiya samaradorligi (0,55) bodringnikidan (0,26) yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Qayta tiklanmaydigan energiya shakli bodring (2,8 GJ/t) va pomidor (1,3 GJ/t) uchun eng yuqori energiya iste’moliga ega. Bundan tashqari, qayta tiklanmaydigan energiya manbalari hisoblangan biomassa va suv energiyalari ikkinchi va uchinchi darajalarda bo‘lib bodring va pomidor uchun mos ravishda 18,7 MJ/t va 8,12 MJ/t bo‘lgan eng past ulushni tashkil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Bodring va pomidor ishlab chiqarishda energiya manbalarining ulushi.

Lekin ushbu yo'nalishda ko'p sonli tadqiqotlar olib borilganligi va samarali natijalarga erishganligiga qaramay hozirgi vaqtida issiqxonalarda an'anaviy energiya resurslarini tejash va barqaror energiya ta'minotini yaratish asosiy muammo hisoblanadi. Shu sababli, ushbu maqolada zamonaviy issiqxonalarning turli qoplamlami variantlarida issiqlik yuklamasining o'zgarishi tahlil qilindi. Ishning maqsadi O'zbekiston Janubiy hududlari iqlim sharoitida turli qoplamlami gelioissiqxonalarning issiqlik yuklamasini aniqlash va energiya tejamkor variantlarini asoslashdan iborat. Chunki, issiqxonalarda optimal harorat-namlik rejimini yaratish bevosita shaffof qoplamanini issiqlik-fizik parametrlariga bog'liq hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishida issiqxonalarning issiqlik yuklamasini shaffof qoplamaning turiga, materialning issiqlik-fizik parametrlari va atrof-muhitning haroratiga bog'liqligi o'r ganilgan.

### Material va uslublar

Tadqiqot ishlari foydali maydoni  $100 \text{ m}^2$  (bir sotix maydonli) tajriba issiqxonasida olib borildi. Issiqxonaning 3 xil variantdagi shaffof qoplamasida hisoblar bajarildi.

1-variant: polikarbonat ( $\delta=4 \text{ mm}$ ) ;

2-variant: polietilen (ikki qatlamlı);

3-variant: polietilen pylonka (bir qatlamlı).

O'r ganilayotgan gelioissiqxonaning asosiy issiqlik-texnik parametrlari 1-jadvalda keltirildi. Gelioissiqxonaning issiqlik balansi hisoblash soddalashtirilgan metodika asosida amalga oshirildi. Quyidagi formula asosida issiqxonaning issiqlik yuklamasi hisoblanadi.

$$Q_{\text{opt}} = K * F_t(t_{\text{opt}} - t_{T,h}) * K_T * K_{\text{int}} - Q_{\text{rad}}, \quad (1)$$

bunda  $K$ -issiqxona qoplamasining issiqlik uzatish koeffitsiyenti,  $vt/(m^2*k)$ ;  $F_t$  – issiqxona maydoni,  $m^2$ ;  $t_{\text{opt}}$  – issiqxona ichki havosining optimal harorati,  $^{\circ}\text{C}$ ;  $t_{T,h}$  – tashqi havo harorati;  $^{\circ}\text{C}$ ;  $K_T$  – to'siq koeffitsiyenti;  $K_{\text{int}}$  – infiltratsiya koeffitsiyenti;  $Q_{\text{rad}}$  – issiqxonaga tushadigan quyosh nurlanish energysi,  $\text{kvt}$ .

$$Q_{\text{rad}} = \alpha * \tau * F_T * q_{\text{rad}} \quad (2)$$

bunda  $q_{\text{rad}}$ -issiqxona shaffof qoplamasini sirtiga tushadigan quyosh nurlanish energiyasining zichligi,  $\text{vt}/\text{m}^2$ ;  $\alpha$ -quyosh energiyasini yutish koeffitsiyenti;  $\tau$ -nur o'tkazish koeffitsiyenti. Hisoblarda  $\alpha=0,8$  va  $\tau=0,8$  qabul qilindi [1, 5].

1-jadval

**Tajriba gelioissiqxonaning asosiy issiqlik-texnik parametrlari**

Nº	Parametrlar	Belgilanishi	O'Ichov birligi	miqdori
1	Issiqxonaning foydali maydoni	$F_t$	$m^2$	100
2	Optimal harorat rejimi	$t_{opt}$	$^0C$	18/20
3	Infiltratsiya koeffitsyienti	$K_{inf}$	-	1,1/1,2
4	To'siq koeffitsyienti	$K_T$	-	1,3/1,5
5	Issiqlik uzatish koeffitsyienti a) pylonka (bo'sh qatlamlı) b) pylonka (ikki qatlamlı) c) polikarbonat ( $\delta=4$ mm)	K K K	$Vt/(m^2 * k)$	10,2 5,8 3,9

**Natijalar**


Tajriba gelioissiqxonaning issiqlik yuklamasi hisobi natijalari 2-jadvalda keltirildi. Pylonkali O'zbekiston iqlim sharoitida eng ko'p qo'llaniladigan shaffof qoplama sifatida polietilin pylonka qo'llaniladi. Lekin, pylonkali qoplamalarning yaroqlilik muddati keskin kontinental iqlim sharoitida kamayishini kuzatish mumkin.

2-jadval

**Foydali maydoni 100 m<sup>2</sup> pylonkali issiqxonaning issiqlik yuklamasi**

Nº	Issiqxona rejimi	$t_{T,h} ^0C$	$T_{op} , ^0C$	$Q_p , kvt$	$Q_{yuk} , kvt$	$Q_p/Q_{yuk}$	%
1.	Kunduzi	0	18-20	7,35	16,28	0,45	45
2.	Tungi	-6	18-20	-	21,72	-	-

Foydali maydon 100 m<sup>2</sup> bo'lgan ikki qatlamlı pylonkali issiqxonaning kunduzgi rejimdagı issiqlik yuklamasi 16,3 kvt, tungi rejimda 21,7 kvt ya'ni 1,33 martaga ko'p bo'lishi aniqlandi. Qolgan hisoblar va tadqiqotlar natijalari 1-rasmda aks ettirildi.



1-rasm. Issiqxona isitish yuklamasining tashqi muhit harorati, quyosh radiatsiya va shaffof qoplamalar turiga bog'liq o'zgarish grafigi.

3-jadval

**Turli qoplamlari issiqxonalar isitish yuklamasining hisobiy qiymatlari**

<b>№</b>	<b>Issiqxona qoplamasini turi</b>	<b>Issiqxona maydoni, m<sup>2</sup></b>	<b>Tungi rejimda maksimal issiqlik yuklamasi, Q, kVt</b>	<b>Kunduzgi rejimda maksimal issiqlik yuklamasi, Q, kVt</b>
1.	Polietilen (bir qatlamlı)	100	30	24
2.	Polietilen (ikki qatlamlı)	100	18	12
3.	Polikarbonat	100	13	4,8

1-rasmdagi grafik va 3-jadvalda keltirilgan natijalar tahlili, polikarbonat qoplamlari issiqxonaning issiqlik yuklamasi tungi rejimda 13,0 kvt, kunduzgi rejimda 5,0 kvt ni tashkil etishini ko'rsatdi. Natijada, bunday qoplama ikki qatlamlı pylonkaga nisbatan tungi rejimda 1,38 marta issiqlik yuklamasini kamaytiradi, ya'ni 25-28% issiqlik energiyasini tejash imkonini beradi.

Olib borilgan tajriba tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy gelioissiqxonalarda shaffof qoplama sifatida polikarbonat materialidan foydalanish issiqlik-texnik va energetik jihatdan samarali hisoblanadi. Qalinligi  $\delta=4$  mm bo'lgan polikarbonat qoplamaning issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $K_{PK}=3,8/4,0$  vt/(m<sup>2</sup>\*k) ga teng bo'lib, bir qatlamlı polietilin qoplamaga nisbatan 2,5/2,6 martaga kichik hisoblanadi. Natijada, polikarbonat qoplamlari Gelioissiqxonalarda qish oyalarida issiqlik yo'qotishligi pylonkali issiqxonalarga nisbatan 30% gacha kamaytirishga erishildi.

**Xulosa**

1. Turli shaffof qoplamlari issiqxonalarining isitish yuklamasi tahlili shuni ko'rsatadiki, energiya tejamkorlik va mustahkamlik talablariga javob beradigan qoplama polikarbonat hisoblanadi. Chunki qalinligi  $\delta=4$  mm bo'lgan polikarbonat materialining issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $K_{PK}=3,8-4,0$  vt/(m<sup>2</sup>\*k) bo'lib, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti nisbatan kichik bo'ladi.

2. Polikarbonat qoplamlari gelioissiqxonalarda qish oyida ikki qatlamlı pylonkali issiqxonalarga nisbatan 30-50 % gacha issiqlik yo'qotilishi kamaytirishga erishiladi.

3. Gelioissiqxonalarda Qarshi shahri sharoitida noyabr-fevral oyalarida (4 oy= 130 sutka) optimal mikroiqlim yaratish uchun isitish tizimi talab qilinadi, quyosh energiyasi hisobidan issiqlik yuklamasini o'rtacha 30% qismini qoplash mumkinligi aniqlandi.

4. Olib borilgan hisob va tadqiqot ishlari natijasi tahlili shuni ko'rsatadiki qishki tungi rejimda polikarbonatli qoplama bir qatlamlı pylonkaga nisbatan 2,0-2,3 marta isitish uchun energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.

**Adabiyotlar**

- [1] Uzoqov G.N., Davlonov X.A. Gelioissiqxonalarining energiya tejamkor isitish tizimlari. Monografiya, - T.: "Voris", 2019 – 144 bet.
- [2] Узаков Г.Н., Давлонов Х.А., Узакова Ю.Г. Устройство для отопления и топливо снабжения теплиц. Патент Р. Уз., 2019 г.
- [3] Пенджиев А.М. Термический режим в комбинированных культивационных сооружения // Гелиотехника., 2018 №2. С.47-58.
- [4] Алиярова Л.А. Разработка гелионагревательной системы для тепловлажностной обработки воздуха в теплицах. Автореферат на соискание доктора философии (PHD) по техн наукам по спец. 05.05.06. – Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии, 2022. 49 с.
- [5] Вардияшвили А.Б. Теплообмен и гидродинамика в комбинированных солнечных теплицах с субстратом и аккумулированием тепла, Ташкент: Фан, 1990.-196с.

- 
- [6] Ministry of Jihad-e-Agriculture of Iran, 2020. Annual agricultural statistics. [www.maj.ir](http://www.maj.ir) (in Persian)
  - [7] Cellura, M., Longo, S., Mistretta, M., 2012. Life cycle assessment (LCA) of protected crops: an Italian case study. *J. Clean. Prod.* 28, 56–62.
  - [8] Ali, Q., Khan, M., 2017. Impact of energy efficiency improvement on green-house gas in off-season tomato farming: Evidence from punjab. *Pakistan J. Sci. Res.* 5, 207–217.
  - [9] Dalgaard, T., Halberg, N., Porter, J.R., 2001. A model for fossil energy use in danish agriculture used to compare organic and conventional farming. *Agric. Ecosyst. Environ.* 87, 51–65.
  - [10] Demircan, V., Ekinci, K., Keener, H.M., Akbolat, D., Ekinci, C., 2006. Energy and economic analysis of sweet cherry production in Turkey: A case study from Isparta province. *Energy Convers. Manag.* 47, 1761–1769.